



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 4

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 4



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№4 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-4>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambariddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

<b>1. Abdullayev Jamshid Djamilovich</b> HAQ EVAZIGA XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMALARI TIZIMIDA TIBBIY XIZMAT DIAGNOSTIKA – TASHXIS QO'YISH BILAN BOG'LIQ SHARTNOMALARNING TUTGAN O'RNI.....	5
<b>2. Баходирова Нилуфар Зафар кизи</b> ФЕНОМЕН DATA-DRIVEN ЭКОНОМИКИ И ТРАНСФОРМАЦИЯ АНТИМОНОПОЛЬНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	12
<b>3. Ibragimova Rayxon Shodmon qizi</b> FUQAROLIK PROTSESSIDA GUVONNING HUQUQIY MAQOMI VA O'RNI.....	19
<b>4. Курбанова Лолита Алишеровна</b> ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРИКОМАНДИРОВАНИЯ РАБОТНИКОВ В ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ.....	25
<b>5. Po'latov Mirzohid Qo'zimurodovich</b> OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLAR XODIMLARNI MAJBURIY TIBBIY KO'RIKDAN O'TKAZISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI.....	35
<b>6. Abdulxoshimov Shoxruxbek Shuxratjon o'g'li</b> XODIMNI ISHDAN CHETLASHTIRISHDA HUQUQIY KAFOLATLAR VA PROTSESSUAL HIMOYA VOSITALARI.....	44
<b>7. Насритдинова Наргиза Шокиржоновна</b> АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА НОМУСТА ТЕГИШ УЧУН ЖИНОЙ ЖАВОБГАРЛИК ВА УНИНГ ЖИНСИЙ ЭРКИНЛИККА ҚАРШИ ЖИНОЯТЛАР ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	51
<b>8. Рапиқов Хурсанали Юлдошбоевич</b> ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БЕЗОРИЛИГИ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАСИ.....	58
<b>9. Sadullayev Jahongir Jamshedovich</b> SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA HUIJATLARNI SOXTALASHTIRISH: JINOYAT- HUQUQIY TAVSIF VA JAVOBGARLIK MASALALARI.....	67
<b>10. Musurmanov Bekzod Raximovich</b> TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI.....	75
<b>11. Yusuvalieva Rakhima Yusupovna, Amirkulova Parinamoi Behbud</b> LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF MIGRANTS' RIGHTS IN THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.....	82
<b>12. Бабаджанов Бахтиёр Бекович</b> ЖИНОЯТЧИЛИККА ҚАРШИ КУРАШИШ ЖАМИЯТДА ИЖТИМОЙ БАРҚАРОРЛИК, ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШИ.....	89




**12.00.09-УГОЛОВНЫЙ ПРОЦЕСС. КРИМИНАЛИСТИКА, ОПЕРАТИВНО-РОЗЫСКНОЕ ПРАВО И СУДЕБНАЯ ЭКСПЕРТИЗА**

**Musurmanov Bekzod Raximovich,**  
 O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish  
 akademiyasi tadqiqotchisi  
 E-mail: raximovichbekzod@gmail.com

**TERGOV JARAYONIDA RAQAMLI (ELEKTRON) DALILLARNING NAZARIY TUSHUNCHALARI VA YURIDIK TABIATI**

**For citation:** Musurmanov Bekzod Rakhimovich. THEORETICAL APPROACHES TO DIGITAL (ELECTRONIC) EVIDENCE IN CRIMINAL PROCEEDINGS. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 4.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082399>

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada tergov jarayonida raqamli (elektron) dalillarning nazariy tushunchalari, huquqiy tabiati va ularni baholash mezonlari tahlil qilinadi. Raqamli dalillarning an’anaviy ashyoviy va hujjatli dalillardan farq qiluvchi belgilari — ma’lumotning nusxalanuvchanligi, metama’lumotlarning mavjudligi, o‘zgarishga moyilligi hamda manbaga bog‘liqligi — ularni to‘plash va tekshirishda maxsus yondashuvni talab etishi asoslanadi. Maqolada maqbullik, ishonchlilik va daxldorlik kabi umumiy talablar bilan bir qatorda raqamli dalillar uchun hal qiluvchi bo‘lgan yaxlitlik (integrity), autentifikatsiya va “dalillar zanjiri” (chain of custody) tushunchalari ochib beriladi. Xorijiy sud amaliyotidan misollar orqali elektron ma’lumotlarning haqiqiylikni tasdiqlash usullari va sud nazoratining roli ko‘rsatiladi. Tahlil natijasida milliy jinoyat-protsessual tartibotda raqamli dalillarning maqomini aniqlash, ularning yaxlitligini ta’minlash va baholash standartlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy xulosalar taklif etiladi.

**Kalit so‘zlar:** raqamli dalillar; elektron dalillar; autentifikatsiya; yaxlitlik; dalillar zanjiri; maqbullik; metama’lumotlar; xesh-qiymat.

**Мусурманов Бекзод Рахимович,**  
 Соискатель Правоохранительной Академии  
 Республики Узбекистан  
 E-mail: raximovichbekzod@gmail.com

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ЦИФРОВЫМ (ЭЛЕКТРОННЫМ) ДОКАЗАТЕЛЬСТВАМ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ**

**АННОТАЦИЯ**

В статье анализируются теоретические подходы к пониманию цифровых (электронных) доказательств в уголовном процессе, их юридическая природа и критерии оценки на стадии расследования. Показано, что цифровые данные отличаются от традиционных вещественных

и документальных доказательств воспроизводимостью, наличием метаданных, высокой изменяемостью и зависимостью от технической среды, что требует специальных процессуальных гарантий при их сборе и проверке. Наряду с общими требованиями допустимости, относимости и достоверности раскрываются ключевые для цифровых доказательств категории целостности (integrity), аутентификации и «цепочки хранения» (chain of custody). На примерах судебной практики США демонстрируются типичные проблемы подтверждения подлинности скриншотов, сообщений и данных мобильных устройств, а также роль судебного контроля. Сделан вывод о необходимости уточнения процессуального статуса цифровых доказательств и разработки стандартов их фиксации и оценки в национальном праве.

**Ключевые слова:** цифровые доказательства, электронные доказательства, аутентификация, целостность, цепочка хранения доказательств, допустимость, метаданные, хеш-значение.

**Musurmanov Bekzod Rakhimovich,**  
 Researcher of the Law Enforcement  
 Academy of the Republic of Uzbekistan  
 E-mail: raximovichbekzod@gmail.com

## THEORETICAL APPROACHES TO DIGITAL (ELECTRONIC) EVIDENCE IN CRIMINAL PROCEEDINGS

### ANNOTATSIYA

This article examines the concept and legal nature of digital (electronic) evidence in criminal proceedings and proposes criteria for its assessment during the investigation stage. Digital data differs from traditional physical and documentary evidence because it is replicable, metadata-dependent, technically mediated, and vulnerable to alteration; therefore, its procedural handling requires specific safeguards. Beyond general admissibility requirements (relevance, reliability, and lawfulness), the paper focuses on integrity, authentication, and chain of custody as core standards for evaluating digital evidence. Drawing on U.S. case law, the article illustrates authentication challenges involving screenshots, social-media content, and mobile-device data, and highlights the role of judicial oversight. The study concludes that national criminal procedure should clarify the status of digital evidence and adopt rules for fixation, hashing, preservation, and evaluative standards.

**Keywords:** digital evidence, electronic evidence, authentication, integrity, chain of custody, admissibility, metadata, hash value.

So‘nggi yillarda jinoyat sodir etish usullari va jinoyat izlari ham “raqamli muhit”ga ko‘chmoqda: mobil telefonlar, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli servislar, geolokatsiya va trafik ma’lumotlari orqali shaxsning harakati, aloqalari va niyatlari haqida ma’lumotlar shakllanadi. Shuning uchun tergov amaliyotida dalillar faqat ashyoviy (masalan, predmetlar) yoki qog‘oz hujjatlar bilan cheklanmay, ko‘p hollarda elektron ma’lumotlar asosiy isbot vositasiga aylanmoqda. Bu esa raqamli dalil tushunchasini ilmiy aniqlash, uning protsessual maqomini belgilash va baholash mezonlarini (ishonchlilik, qonuniylik, yaxlitlik, autentifikatsiya) ishlab chiqishni dolzarb qiladi.

Shu bilan birga, raqamli dalillarning tabiati an’anaviy dalillardan farq qiladi: ma’lumotni oson nusxa ko‘chirish imkoniyati, metama’lumotlarning mavjudligi, tahrir va o‘chirish xavfi yuqori ekanligi, ma’lumot ko‘pincha masofadan boshqarilishi shular jumlasidandir. Demak, tergovchi uchun asosiy masala — ma’lumotni topishning o‘zi emas, balki uni tez saqlab qolish, to‘g‘ri qayd etish va keyin sudda ishonchli tarzda taqdim etishdir.

Raqamli dalillar bilan ishlash jarayonida muhim masalalardan yana biri — ularning vaqt omili bilan chambarchas bog‘liqligidir. Elektron ma’lumotlar ko‘pincha dinamik xususiyatga ega bo‘lib, qisqa vaqt ichida o‘zgartirilishi, o‘chirib yuborilishi yoki tizimdan avtomatik ravishda yo‘qolib ketishi mumkin. Ayniqsa, bulutli texnologiyalar va messenjer platformalarida saqlanayotgan ma’lumotlar ko‘pincha foydalanuvchi nazoratidan tashqarida bo‘lgan server infratuzilmasida joylashganligi sababli, ularni tezkor tarzda mustahkamlab qolish zarurati yanada ortadi. Shu bois

tergov organlari tomonidan “kechiktirib bo‘lmaydigan protsessual harakatlar” doirasida raqamli ma’lumotlarni zudlik bilan aniqlash, qayd etish va saqlash mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, dalilning yo‘qolishi yoki o‘zgarishi nafaqat uning ishonchliligiga putur yetkazadi, balki butun isbotlash tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu jihatdan, raqamli dalillar bilan ishlashda tezkorlik va protsessual aniqlik o‘zaro uzviy bog‘liq tamoyillar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda raqamli dalillar institutini mustahkamlash maqsadida maxsus qonunchilik islohotlari amalga oshirilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan bir qator protsessual normalarga (jumladan, Jinoyat-protsessual kodeksiga ham) raqamli dalillar tushunchasi va ular bilan ishlashning muhim bosqichlari: to‘plash, taqdim etish, mustahkamlash, ko‘zdan kechirish, tekshirish va baholash, saqlash, qaytarish hamda yo‘q qilish tartiblarini belgilashga qaratilgan o‘zgartirishlar kiritilgan. Ya’ni qonun raqamli dalillarni “amaliyotda qanday qilamiz?” degan savolga umumiy protsessual asos yaratib bergan.

Mazkur tadqiqotda raqamli dalillarga oid normalarni O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 21-noyabrdagi O‘RQ-1003-son Qonuni hamda Jinoyat-protsessual kodeksi qoidalari misolida “norma matni” sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi. Bunda raqamli dalilga oid qoidalarning kodeksda joylashuvi, ular orqali belgilangan huquq va majburiyatlar, shuningdek tergovning qaysi bosqichida qanday protsessual qaror (masalan, ko‘zdan kechirish, nusxa olish, ekspertizaga yo‘naltirishga oid rasmiylashtirish) talab etilishi aniqlanadi. Shu bilan birga, tizimli tahlil usuli raqamli dalilni alohida fenomen sifatida emas, balki isbotlash tizimining boshqa institutlari — tergov harakatlari (ko‘zdan kechirish), ekspertiza, sud nazorati, huquq kafolatlari va dalillarning maqbulligi bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi; ya’ni tahlil obyekti “bir norma” emas, balki raqamli dalilni yig‘ish va tekshirishning butun protsessual mexanizmi hisoblanadi.

Mazkur protsessual mexanizmning samaradorligi ko‘p jihatdan uni amaliyotda qo‘llash darajasiga bog‘liqdir. Ya’ni, qonunchilikda belgilangan normalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan yetarli emas, balki ularni to‘g‘ri va izchil qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, raqamli dalillar bilan ishlashda tergov organlarining texnik tayyorgarligi, mutaxassislar ishtiroki va zamonaviy vositalardan foydalanish darajasi hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli protsessual normalar bilan bir qatorda metodik tavsiyalar va amaliy yo‘riqnomalarni ishlab chiqish ham zarur hisoblanadi.

Qiyosiy-huquqiy usul milliy amaliyotni xalqaro tajriba bilan solishtirish orqali (masalan, raqamli dalilni saqlab qolish — preservation, provayder ma’lumotlarini olish tartibi, autentifikatsiya standartlari) milliy qonunchilikni takomillashtirish uchun ilmiy xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan. Doktrinal tahlil esa olimlar va mutaxassislar qarashlari asosida raqamli dalillarni baholashda muhim bo‘lgan “integrity”, “authentication”, “chain of custody” mezonlarining mazmunini ilmiy jihatdan asoslab, turli nazariy yondashuvlarni umumlashtirishni ta’minlaydi (Voronin, 2021; Angus-Anderson, 2015; Kyei et al., 2013). Natijada, ushbu to‘rt metod birgalikda qonun normalarini talqin qilish (formal-yuridik), amaliyot mexanizmini yaxlit ko‘rish (tizimli), xorijiy modellardan qiyosiy xulosa chiqarish (qiyosiy-huquqiy) va baholash mezonlarini ilmiy asoslash (doktrinal) orqali tadqiqotning akademik mustahkamligini ta’minlaydi.

Raqamli dalilning yuridik tabiati haqida ilmiy adabiyotda, odatda, ikki yondashuv raqobat qiladi: (a) “elektron ko‘rinish” (ya’ni an’anaviy dalil turlarining raqamli shakli) va (b) “mustaqil institut” (raqamli muhit tabiatiga mos alohida rejim). Voronin raqamli dalillar amalda umumiy dalillarni baholash qoidalari asosida tahlil qilinishi, biroq sudlar ko‘p holatda dalilning elektron (raqamli) mohiyatini inobatga olmay qolishi oqibatida xulosalarda xatolar yuzaga kelishini ta’kidlaydi [1. -B.120.]. Bu fikrni qo‘llab-quvvatlagan holda shuni ham aytish kerakki: raqamli ma’lumot “o‘zi-o‘zidan” dalilga aylanmaydi — u protsessual shakl (tergov harakati bayonnomasi, olib qo‘yish yoki ko‘chirish tartibi, mutaxassis xulosasi, saqlash tartibi) orqali isbotlash tizimiga kiritiladi. Shushenachev aynan shu nuqtaga yaqin kelib, raqamli izlar “tergovda yig‘ish–rasmiylashtirish” jarayoni orqali elektron dalilga aylanishini, bunda asosiy amaliyot ikki yo‘l —

kompyuter vositalarini olib qo'yish va elektron axborotni ko'chirish ekanini ko'rsatadi.<sup>2</sup> Biroq raqamli dalilni faqat "ko'chirish" yoki "olib qo'yish" texnikasiga bog'lab qo'yish uning huquqiy maqomini to'liq tushuntirib bermaydi; chunki dalilning maqbulligiga ta'sir qiluvchi asosiy omil — manba (kelib chiqish va o'zgaraslikni kafolatlaydigan tartib (ya'ni yaxlitlik va "dalillar zanjiri")dir. Kolichenko ham elektron dalillarni tekshirish va baholashdagi muammolarning markazida aynan protsessual tartibning yetarlicha aniq belgilab qo'yilmagani va amaliy tekshiruv mexanizmlaridagi bo'shliqlar turganini ta'kidlaydi.<sup>3</sup>

So'nggi yillarda jinoyat sodir etish usullari va jinoyat izlari "raqamli muhit"ga ko'chmoqda: mobil qurilmalar, messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar, bulutli servislar, geolokatsiya va trafik ma'lumotlari shaxsning harakati, aloqalari hamda ayrim hollarda niyatlari haqida axborotni shakllantiradi. Shu sababli tergov amaliyotida dalil bazasi ko'pincha ashyoviy predmetlar yoki qog'oz hujjatlar bilan cheklanmay, elektron ma'lumotlar isbotlash tizimida yetakchi o'rinni egallamoqda [1, -B 118–128; 2, -B 122–126]. Bu holat raqamli dalil tushunchasini ilmiy aniqlash, uning protsessual maqomini belgilash va baholash mezonlarini (qonuniylik, ishonchlilik, yaxlitlik, autentifikatsiya) huquqiy jihatdan mustahkamlashni dolzarb qiladi [1, -B 118–128].

O'zbekistonda mazkur ehtiyojga javob sifatida 2024-yil 21-noyabrda qabul qilingan O'RQ-1003-son Qonun orqali qator protsessual qoidalarga raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi [16]. Mazkur yangilanishlar amaliyotda "raqamli ma'lumotni qanday tartibda to'plash, mustahkamlash, ko'zdan kechirish, tekshirish-baholash, saqlash va keyinchalik ish bo'yicha taqdim etish mumkin?" degan savollarga yagona protsessual yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi [16].

Raqamli dalilning yuridik tabiati xususida ilmiy adabiyotda, odatda, ikki yondashuv raqobat qiladi: (a) "elektron ko'rinish" (an'anaviy dalil turlarining raqamli shakli) va (b) "mustaqil institut" (raqamli muhit xususiyatlariga mos alohida rejim). Voroninning qayd etishicha, amaliyotda elektron (raqamli) dalillarga umumiy dalillarni baholash qoidalari mexanik tatbiq etilishi, ayniqsa sudlar dalilning raqamli tabiatidan kelib chiqadigan xavf-xatarlarni (tahrirlanish, manbaga bog'lash murakkabligi, metama'lumotlar omilliligi) yetarlicha inobatga olmasligi oqibatida xulosalarda xatolar yuzaga kelishi mumkin [1, -B 118–128]. Bu fikrdan kelib chiqib, muhim tezisni ta'kidlash lozim: raqamli ma'lumot "o'zi-o'zidan" dalilga aylanmaydi; u isbotlash tizimiga faqat protsessual shakl orqali (tergov harakati bayonnomasi, olib qo'yish/nusxa ko'chirish tartibi, mutaxassis ishtirokida qayd etish, saqlash rejimi) kiritilgandagina dalil sifatida to'liq qiymat kasb etadi [2, -B 122–126].

Shushenachev raqamli izlarning dalilga aylanishi aynan "yig'ish–rasmiylashtirish" jarayoniga bog'liq ekanini ko'rsatib, amaliyotda ko'p uchraydigan ikki yo'lga urg'u beradi: (1) kompyuter/tashuvchini olib qo'yish va (2) elektron axborotni ko'chirish [2, -B 122–126]. Biroq raqamli dalilni faqat "olib qo'yish" yoki "ko'chirish" texnikasi bilan izohlash uning huquqiy maqomini to'liq ochib bermaydi: chunki dalilning maqbulligiga hal qiluvchi ta'sir qiluvchi omil — manbaning ishonchliligi hamda o'zgaraslikni kafolatlaydigan tartib, ya'ni yaxlitlik va "dalillar zanjiri"dir [1, -B 118–128]. Kolichenko ham elektron dalillarni tekshirish va baholashdagi asosiy muammolar markazida aynan protsessual tartibning yetarlicha aniq belgilanmagani va amaliyotda yagona tekshiruv mexanizmlarining barqaror emasligi turganini ta'kidlaydi [3, -B 1–34]. Demak, bahsning mohiyati "raqamli dalil bor-yo'qligi"da emas, balki uning sudgacha va sudda **maqbul, tekshiriladigan va ishonchli** tarzda taqdim etilishini ta'minlaydigan huquqiy-texnik kafolatlarning darajasidadir.

"Mustaqil institut" yondashuvini asoslaydigan muhim dalil — raqamli muhitda "original–nusxa" kategoriyasi ko'p holatda shartli. Masalan, ekspert amaliyotida "bit-bayt" (forensic image) nusxa tahlil uchun asosiy obyekt bo'lib xizmat qiladi, original tashuvchi esa manba sifatida muhofaza qilinadi [6, -B 314–327]. Bu amaliyot raqamli dalillarga nisbatan "oddiy qog'oz hujjat" logikasini mexanik qo'llash mumkin emasligini anglatadi. Astanov va Karimov raqamli ekspertizada tashuvchilar bilan ishlashda qadoqlash–saqlash–topshirish, izchil hujjatlashtirish va texnik tekshiruv vositalarini markaziy talab sifatida ko'rsatadi [5]. Tadjiyev esa raqamli dalillar maqbulligini ta'minlashda "to'plash–tekshirish–baholash" zanjirida protsessual qoidalar bilan amaliyot

uyg'unligini kuchaytirish zarurligini alohida qayd etadi [4]. Shu nuqtada milliy qonunchilik tendensiyasi ham ahamiyatli: O'RQ-1003-son Qonun raqamli dalillar bilan ishlash tizimini kompleks tartibga solishga yo'naltirilgani "alohida rejim" g'oyasini institutsional jihatdan kuchaytiradi [16].

Raqamli dalillarni baholashda umumiy mezonlar — aloqadorlik, maqbullik, ishonchlilik va yetarlilik — saqlanadi. Biroq raqamli muhitga xos tavakkalchiliklar (oson tahrirlanish, "feyk" akkauntlar, metama'lumotlarni o'zgartirish, bulutli saqlashda transchegaraviylik) sababli ishonchlilikni ta'minlash uchun uchta maxsus "filtr" hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi: yaxlitlik (integrity), autentifikatsiya (authentication) va dalillar zanjiri (chain of custody) [1, –B 118–128]. Voroninning tanqidiy pozitsiyasiga muvofiq, aynan shu uch mezon amaliyotga tizimli kiritilmasa, elektron dalilning "ko'rinishda ishonarli" bo'lishi uning haqiqiy ishonchli dalil ekanini anglatmay qoladi [1, –B 118–128]. Kolichenko ta'kidlagan "protsessual bo'shliq" muammosi bilan polemikada esa quyidagi xulosani ilgari surish mumkin: yechim faqat ta'riflarni kengaytirishda emas, balki har bir bosqichda tekshiriladigan texnik-huquqiy indikatorlarni (hash, protokollash, loglar, saqlash rejimi, qabul-topshirish qaydlari) standartlashtirishda bo'lishi kerak [3, –B 1–34].

**Yaxlitlik (integrity)** — dalil olingan paytdan to sudga taqdim etilgunga qadar uning o'zgarmaganini ishonchli ko'rsatishdir. Kyeñ va hammualliflar raqamli kriminalistika modellarida dalilning keyinchalik maqbul bo'lishi uchun to'plash jarayonidayoq "texno-huquqiy" talablar (hujjatlashtirish, nazorat, qayta tiklanadigan tartib) ustuvor bo'lishi zarurligini ta'kidlaydi [6, –B 314–327]. Milliy amaliyot nuqtayi nazaridan, Astanov va Karimov bayon qilgan qadoqlash–saqlash–topshirish algoritmlari yaxlitlikni ta'minlashning amaliy "skeleti" sifatida namoyon bo'ladi [5]. Shu yerda prinsipial nuqta bor: yaxlitlikni "faqat xesh" deb tor tushuntirish xato; yaxlitlik — tashuvchi/ma'lumot bilan ishlash qadamlarining isbotlanadigan tartibi (kim oldi, qachon, qaysi uskuna bilan, qayerga saqladi, kim qabul qildi) bilan bir butun mexanizmdir [5].

**Autentifikatsiya (authentication)** — dalil aynan da'vo qilingan manbaga tegishli ekanini, ya'ni "shu akkaunt, shu qurilma, shu shaxs, shu servis" bilan bog'liqligini asoslashdir. AQSH sud amaliyotida ijtimoiy tarmoq materiallarini qabul qilishda "ekran tasviri"ning o'zi yetarli bo'lmasligi aniq ko'rinadi: Griffin v. State ishida sud haqiqiylik xavflari sabab qo'shimcha tasdiqlovchi dalillar talab etilishini ko'rsatgan [11]. O'xshash yondashuv United States v. Vayner ishida ham namoyon bo'ladi: veb-sahifa/profil dalil sifatida qabul qilinishi uchun uni ayblanuvchiga bog'laydigan dalillar taqdim etilishi shart [12]. Shuning uchun autentifikatsiyani "minimal bo'sag'a" bilan cheklash raqamli muhitda montaj va feyk xavflari yuqori ekanini inobatga olmaganda isbotlash sifatini pasaytiradi; aksincha, metama'lumotlar, loglar, qurilma ekspertizasi, provayder axboroti kabi bog'lovchi dalillar autentifikatsiya standartining amaliy poydevori bo'lishi lozim [7, –B 33–51]. Bu nuqta, xususan, United States v. Browne kabi ishlarda messenjer yozishmalarini dalil sifatida qabul qilishda kontekst va bog'lovchi belgilar ahamiyatini kuchaytirish tendensiyasi bilan uyg'unidir [13]. Shu bilan birga, "self-authentication" institutlari (masalan, ayrim turdagi elektron yozuvlarni maxsus tartibda o'z-o'zidan autentifikatsiyalanadigan qatoriga kiritish) umumiy qoidani bekor qilmaydi: baribir manbaga bog'lash va soxtalashtirish xavfini baholash saqlanadi [14].

**Dalillar zanjiri (chain of custody)** — dalil bilan kim, qachon, qayerda va qanday amal qilganini uzluksiz qayd etishdir; u yaxlitlik va autentifikatsiyani "protsessual kafolat" bilan bog'lab turadi [1, –B 118–128]. Astanov va Karimov ta'kidlagan qabul-topshirish, qadoqlash, saqlash va rasmiylashtirish qoidalari dalillar zanjirini uzmaslikka xizmat qiladi [5]. Bunga qo'shimcha ravishda, mobil qurilmalar ma'lumotlari bilan ishlashda sud nazorati masalasi AQSHda Riley v. California (telefonidagi raqamli axborotga kirishda order talab etilishiga oid yondashuv) va Carpenter v. United States (geolokatsiya/CSLI ma'lumotlari bo'yicha kafolatlar) ishlarida yorqin namoyon bo'lgan [9, 10]. Qiyosiy nuqtayi nazardan, ushbu pretsedentlar bir fikrni mustahkamlaydi: protsessual ruxsat va sud nazorati qanchalik aniq bo'lsa, maqbullik, zanjir va ishonchlilikka oid bahslar shunchalik kamayadi [9, 10].

Raqamli dalilning huquqiy tabiati va amaliyotdagi ishlash mexanizmi uni "an'anaviy dalilning elektron shakli" sifatida emas, balki raqamli muhit xususiyatlariga mos **alohida protsessual rejim** talab qiladigan institut sifatida baholashni asoslaydi [1, –B 118–128; 2, –B 122–126; 16]. Bu yondashuv raqamli ma'lumotning oson nusxa ko'chishi, tahrirlanishi, masofaviy boshqarilishi va

metama'lumotlar orqali qayta qurilishi mumkinligini hisobga olgan holda, uning maqbulligi va ishonchliligi ta'minlaydigan kafolatlarni markazga qo'yadi.

Raqamli dalillar ishonchliligiga erishishda “yaxlitlik – autentifikatsiya – dalillar zanjiri” uchligi universal mezonlar sifatida namoyon bo'ladi; ulardan biri zaif bo'lsa, dalilning suddagi isbot qiymati pasayadi [1, –B 118–128; 6, –B 314–327]. Shuning uchun milliy amaliyotda ham yaxlitlikni faqat xesh bilan cheklamasdan, dalil bilan ishlashning har bir bosqichini izchil hujjatlashtirish (qabul-topshirish qaydlari, saqlash rejimi, ishlov bergan shaxslar va vositalar haqida ma'lumot) standartga aylantirish maqsadga muvofiq [5].

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli muhitda autentifikatsiya “formal belgi” emas, balki manbaga bog'lovchi dalillar majmuasi orqali ta'minlanadi; ijtimoiy tarmoq, veb-sahifa va messenger dalillarida qo'shimcha tekshiruv talab etilishi sud amaliyotida qat'iy tendensiyaga aylangan [11, 12, 13]. Demak, milliy tizimda ham autentifikatsiya standartlarini metama'lumotlar, loglar, qurilma ekspertizasi va provayder ma'lumotlari kabi bog'lovchi dalillar bilan mustahkamlash zarur.

Milliy qonunchilikda O'RQ-1003-son Qonun orqali raqamli dalillar bilan ishlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan normalarning kiritilishi muhim qadam bo'lsa-da, uning amaliyotda barqaror ishlashi uchun **yagona texnik-protsessual standartlar** (nusxa olish protokoli, hash-algoritmardan foydalanish tartibi, dalillar zanjiri jurnali, saqlash-qadoqlash talablari) ishlab chiqilishi va qo'llanilishi zarur [3, –B 1–34; 5; 16]. Bu esa elektron dalillar bo'yicha bahslarni qisqartirib, sud-tergov amaliyotida bir xil yondashuvni ta'minlashga xizmat qiladi.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Воронин М. И. Особенности оценки электронных (цифровых) доказательств // Актуальные проблемы российского права. – 2021. – Т. 16, № 8 (129). – С. 118–128 (Voronin M. I. Features of the assessment of electronic (digital) evidence // Actual problems of Russian law. - 2021. - Vol. 16, No. 8 (129). - P. 118-128).
2. Шушеначев А. В. Правовое регулирование сбора цифровой информации с целью ее представления как доказательства в расследовании преступлений // Юридическая наука. – 2023. – № 1. – С. 122–126 (Shushenachev A. V. Legal regulation of the collection of digital information for its presentation as evidence in criminal investigations // Legal Science. – 2023. – No. 1. – P. 122–126.).
3. Количенко А. А. Проблемы проверки и оценки электронных доказательств в современном уголовном процессе: автореф. дис. ... канд. юрид. наук (5.1.4). – Нижний Новгород, 2024. – 34 с (Kolichenko A. A. Problems of verification and evaluation of electronic evidence in modern criminal proceedings: abstract of PhD thesis in law (5.1.4). – Nizhny Novgorod, 2024. – 34 p.).
4. Таджиев А. А. Жиноят процессида рақамли далиллар мақбуллигининг назарий ва амалий жиҳатлари: магистрлик диссертация иши. – Тошкент, 2025 (Tadjiyev A. A. Theoretical and practical aspects of the admissibility of digital evidence in criminal proceedings: Master's thesis. – Tashkent, 2025).
5. Астанов И. Р., Каримов Б. З. Рақамли экспертиза имкониятлари: миллий ва хорижий тажриба: ўқув қўлланма. – Тошкент, 2019 (Astanov I. R., Karimov B. Z. Possibilities of digital forensics: national and foreign experience: учебное пособие (study guide). – Tashkent, 2019.).
6. Kyei K., Zavarsky P., Lindskog D., Ruhl R. A Review and Comparative Study of Digital Forensic Investigation Models // ICDF2C 2012. LNICST 114. – 2013. – P. 314–327.
7. Angus-Anderson W. Authenticity and Admissibility of Social Media Website Printouts // Duke Law & Technology Review. – 2015. – Vol. 14. – P. 33–51. – URL: <https://scholarship.law.duke.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1282&context=dltr> (мурожаат санаси: 05.03.2026).
8. Lorraine v. Markel Am. Ins. Co. 241 F.R.D. 534 (D. Md. 2007). – URL: [https://www.jenner.com/a/web/wwashvLFr57td3SAKeKQpH/4HRMZQ/Lorraine\\_v.\\_Markel.pdf](https://www.jenner.com/a/web/wwashvLFr57td3SAKeKQpH/4HRMZQ/Lorraine_v._Markel.pdf) (мурожаат санаси: 05.03.2026).

9. Riley v. California. 573 U.S. 373 (2014). – URL: <https://supreme.justia.com/cases/federal/us/573/13-132/case.pdf> (мурожаат санаси: 05.03.2026).
10. Carpenter v. United States. 585 U.S. \_\_\_\_ (2018). – URL: [https://www.supremecourt.gov/opinions/17pdf/16-402\\_h315.pdf](https://www.supremecourt.gov/opinions/17pdf/16-402_h315.pdf) (мурожаат санаси: 05.03.2026).
11. Griffin v. State, 19 A.3d 415 (Md. 2011). – URL: <https://www.courts.state.md.us/data/opinions/coa/2011/74a10.pdf> (мурожаат санаси: 05.03.2026).
12. United States v. Vayner, 769 F.3d 125 (2d Cir. 2014). – URL: <https://www.casemine.com/judgement/us/5914f5e2add7b0493498cb46> (мурожаат санаси: 05.03.2026).
13. United States v. Browne, 834 F.3d 403 (3d Cir. 2016). – URL: [https://www2.law.temple.edu/events/excelling-in-evidence/wp-content/uploads/sites/106/2020/06/United-States-v.-Browne\\_-834-F.3d-403.pdf](https://www2.law.temple.edu/events/excelling-in-evidence/wp-content/uploads/sites/106/2020/06/United-States-v.-Browne_-834-F.3d-403.pdf) (мурожаат санаси: 05.03.2026).
14. Federal Rules of Evidence. Rule 902 (Self-authentication). – URL: [https://www.law.cornell.edu/rules/fre/rule\\_902](https://www.law.cornell.edu/rules/fre/rule_902) (мурожаат санаси: 05.03.2026).
15. Convention on Cybercrime (Budapest Convention), ETS No.185 (23.XI.2001). – URL: <https://rm.coe.int/1680081561> (мурожаат санаси: 05.03.2026).
16. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни: 21.11.2024 й., ЎРҚ-1003-сон “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига рақамли далиллар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”. – URL: <https://lex.uz/docs/7228758> (мурожаат санаси: 05.03.2026) (Law of the Republic of Uzbekistan: No. ZRU-1003 dated November 21, 2024 “On amendments and additions to certain legislative acts of the Republic of Uzbekistan aimed at improving the system of working with digital evidence”. – URL: <https://lex.uz/docs/7228758> (accessed: March 5, 2026).).

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

### JOURNAL OF LAW RESEARCH

#### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahafaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

#### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

#### Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.